



O'SMIRLIK DAVRIDA SUITSID HOLATINING YUZAGA KELISH SABABLARI

Termiz davlat universiteti

Psixologiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ahmedova Ruxshona Shodi qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrida suitsid holatining yuzga kelish sabablari o'rganiladi. Suitsid holatlari nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Shuningdek maqolada o'smirlar orasida suitsid holatini kamaytirish borasida takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Suitsid, affektiv reaksiya, pubertat yoshi, identifikatsiya, o'smirlik, stress, arxetip.

Abstract: This article examines the causes of suicidal behavior in adolescence. Suicide behavior is discussed theoretically and practically. The article also provides suggestions for reducing suicide behavior among adolescents.

Keywords: Suicide, affective reaction, puberty, identification, adolescence, stress, archetype.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины суицидального поведения в подростковом возрасте. Суицидальное поведение обсуждается теоретически и практически. В статье также предлагаются рекомендации по снижению суицидального поведения среди подростков.

Ключевые слова: Суицид, аффективная реакция, половое созревание, идентификация, подростковый возраст, стресс, архетип.

Kirish: Hozirgi davrda suitsid tushunchasi global jamoatchilik muammosiga aylanmoqda. Va aynan suitsid nega shaxslar orasida ko'payib ketmoqda, ayniqsa,



yoshlar orasida. Suitsid yosh davrlaridagi o'zgarishlarga ko'ra turli xil ta'sir xususiyatiga ega bo'ladi. O'smirlik davri juda murakkab va krizisli davr bo'lib, bu davrda turli holatlar sodir bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda o'smirlar orasida suitsid holatlari uchramoqda. Har bir kishida "suitsid o'zi nima?" degan savol albatta tug'iladi.

Suitsid (inglizcha "suicide" so'zidan olingan) - bu og'ir ruhiy stress holatida yoki ruhiy kasallik ta'sirida shaxs tomonidan sodir etilgan o'z joniga qasd qilish harakati; o'tkir psixotravmatik vaziyatlar ta'sirida hayotdan ongli ravishda chetlanish harakati bo'lib, bunda o'z hayoti, eng oliy qadriyat sifatida, o'sha shaxs uchun ma'nosini yo'qotadi.

Suitsid holatlari uchta asosiy guruhga bo'linadi: haqiqiy, namoyishkorona va yashirin. Haqiqiy suitsid -yetarli darajada kutilmagan ko'rinsa-da, to'satdan bo'lmaydi, o'lish istagiga yo'naltiriladi. Bunday suitsidga ruhiy ezilgan kayfiyat, ruhiy azoblanish holati yoki shunchaki hayotdan ketish haqidagi fikr yo'ldoshlik qiladi. Shu bilan birga atrofdagilar bunday holatni sezmasliklari mumkin.

Namoyishkorona suitsid- o'lish istagi bilan bog'liq emas, o'z muammolariga e'tiborni qaratish, yordamga chorlash, dialog olib borish usuli hisoblanadi. Ushbu holda o'lim bilan tugash mash'um tasodif oqibati hisoblanadi. Bu suitsid o'smirlar orasida uchraydi.

Yashirin suitsid (bevosita o'z-o'zini o'ldirish) – uning belgilariga qat'iy javob bermaydigan, biroq o'sha yo'nalish va natijaga ega bo'lmagan suitsidal axloqning turi. Bu axloq yuqori darajada xatarga, hayotdan ketishdan ko'ra o'lim bilan o'ynashishga yo'naltirilgan. Bunday odamlar "shaxsiy xohishi bo'yicha" hayotdan ochiq ketishni emas, suitsidal shartlangan axloqni tanlaydilar. Bu avtomobilda xatarli safar, sportning ekstremal turi bilan shug'ullanish kabilar.



Tadqiqot metodologiyasi: A.G.Ambrumova tadqiqotlarining ma'lumoti bo'yicha suitsidal axloqli 770 bola va o'smir bola tekshirilganda, ularning eng yoshi 7 yoshda bo'lgan. Ko'pchiligini qizlar tashkil etgan. Qizlarda zaharlanish, o'g'il bolalarda esa yo'g'on tomirlarni qirqish va o'z-o'zini osish bo'lgan.

O'smir yoshda suitsidal axloq namoyishkorona, shu jumladan, shantaj xarakteriga ega bo'ladi. A.Ye.Lichkoning ta'kidlashicha, faqat 10 foiz o'smirlardagina o'z-o'zini o'ldirishning haqiqiy istagi mavjud, qolgan 90 foizida – bu yordam haqidagi qichqiriqdir.

B.N.Almazov 14-18 yoshdagi o'zini atayin kesgan o'smirlar guruhini tekshirib, belgiladiki, faqat 4 foizigina o'z-o'zini kesayotgan lahzasida suitsidal mazmundagi fikrga ega bo'lgan. Ko'pgina o'smirlar tengdoshlari bilan urushib qolganidan keyin, shuningdek, “birodarlashuv” an'anasi yoki sodir etilgan holatga ko'ra shu ishni bajarganligi aniqlangan.¹

A.Ye.Lichko, A.A.Alyeksandrov, 14-18 yoshdagi o'smirlar guruhida tekshiruv o'tkazib, 49 foizida suitsidal harakat o'tkir affektiv reaksiya fonida sodir etilgan degan xulosaga keladi. O'smirlar guruhida, shuningdek, psixik buzilishlar roli, masalan, ruhiy azoblanish holati birmuncha o'sgan. Ruhiy azoblanishning “bolalik” belgisiga zerikish va charchash tuyg'usi, mayda narsalarga diqqatni jamlash, isyon va bo'ysunmaslikka moyillik, ichkilik va giyohlarni suiiste'mol qilish qo'shiladi.

Umuman olganda o'smirlarning suitsidal axloqiga tengdoshlari va ota-onalari bilan shaxslararo munosabatlarning ahamiyatli ta'siri haqida gapirish mumkin. L.Ya.Jyezlovaning fikriga ko'ra, pubertat yosh oldidan “oilaviy”, pubertat yoshida esa “jinsiy” va “muhabatli” muammolar ustunlik qiladi.

¹ “Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi” D.Abduvahobova 2013.



14 yoshdan keyin suitsid holatlari qizlarda ham, o`g`il bolalarda ham taxminan bir xil namoyon bo`ladi. O`smir yoshida suitsid ko`pincha jinsiy shaxsiy munosabatlar, masalan, baxtsiz muhabbat bilan bog`liq bo`ladi. Yoshlar guruhi ruhiy azoblanish holatiga duchor bo`ladi. Ruhiy azoblanish holatining darajasi ko`pincha suitsid xavfining jiddiyligining ko`rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy qism: O`smirlar orasida suitsid ya`ni o`z joniga qasd qilishning bir necha ko`rinishlari mavjud.

1. Namoyishli: Vaqt o`tishi bilan qutqarilish umidida, o`z joniga qasd qilish niyatisiz o`z joniga qasd qilishga urinishlarni tasvirlaydigan teatrlashtirilgan sahnalarni sahnalashtirish. Barcha harakatlar yo`qolgan e`tiborni jalb qilish yoki qaytarish, achinishni uyg`otish, hamdardlikni uyg`otish, yaqinlashib kelayotgan muammolardan xalos bo`lish (masalan, sodir qilingan huquqbuzarliklar yoki noto`g`ri ishlar uchun jazolar) uchun amalga oshiriladi.

Diqqat: Ehtiyotsizlik, noto`g`ri hisoblash yoki boshqa baxtsiz hodisalar tufayli namoyishkorona bo`lishga mo`ljallangan harakatlar halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, o`smirlar o`z joniga qasd qilishga urinishlarni va namoyishlarni takrorlashga ma`lum moyillikka ega. Shuning uchun, harakatni namoyishkorona deb baholash barcha holatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab qiladi.

2. Affektiv: affektivlik avjida o`z joniga qasd qilishga urinish, bu bir necha daqiqadan soatlab yoki hatto kungacha davom etishi mumkin. Agar o`lim "taassurot qoldirishi" istagi bo`lsa, affektiv namoyish yuzaga kelishi mumkin.²

3. To`g`ri: asta-sekin rivojlanayotgan o`z joniga qasd qilish niyati bilan sodir bo`ladi. Xulq-atvor o`smirning fikricha, o`z joniga qasd qilishga urinish samarali

² Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.



bo'lishi uchun tuzilgan, shuning uchun o'z joniga qasd qilish harakatlari "aralashmaydi".

O'smirlar orasida suitsid ya'ni o'z joniga qasd qilish xususiyatlari. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tishini anglatadi. 14-15 yoshda o'zini o'zi identifikatsiya qilish arxetipi, farzandlik arxetipi, asosiy o'rinda bo'ladi. O'smirlarda o'z joniga qasd qilishning eng muhim sabablaridan biri ishonchsizlik va o'zini o'zi identifikatsiyalashning yo'qligi hisoblanadi. Ko'pgina bolalar bu yoshni notinch, lekin normal holda boshdan kechirishadi.

O'smirlarning o'z joniga qasd qilishiga ko'pincha yoshlikdagi film qahramoni, yaqin do'sti yoki yaqin kishining harakati sabab bo'ladi. Bunday hollarda, o'smirlar o'z ongida ularga individual evolyutsiyaning muhim bosqichlarini yengib o'tishga yordam bera oladigan "qahramon" qiyofasini "nusxalashga" harakat qilishadi. Kattalar nazoratiga o'rganib qolgan o'smirlar ko'pincha o'z joniga qasd qilishga urinishlarni o'ziga xos o'yin, lekin kattalar tomonidan boshqariladigan o'yin deb bilishadi. Bu davrda suitsid holatlari atrofdagilar tomonidan haddan tashqari talablar qo'yilishi va o'smir bunga to'liq javob bera olmasligi sabab bo'ladi.

Balog'at yoshidagi bolalarda xavotir kuchaygan va depressiyaga moyillik yuqori bo'lgan bolalar, asosan, tug'ma travma olgan bolalar, o'ng miya yarim sharlaridagi bolalar va o'z joniga qasd qilish yoki oilasida yoki yaqin atrofda o'z joniga qasd qilishga urinish tarixi bo'lgan o'smirlarda suitsid holatlari ko'proq uchraydi.

O'smirlar orasida suitsidning yuzaga kelishida bir qancha sabablar mavjud.

1. Shaxsiy mojaro.
2. Yolg'izlik.
3. San'atning ta'siri.(musiqa yoki kino filimlar)



4. Javobsiz his-tuyg'ular.
5. Nostandart jinsiy orientatsiya.
6. Etnik an'analarning yo'q qilinishi.³

Oilaviy omillar ham o'smirlik davrida o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar o'rtasidagi ishonchni yo'qotish o'smirlarda suitsid holatiga moyillikning eng kuchli qo'zg'atuvchi omillaridan biridir. O'smirlar ota-onalariga qanchalik kam ishonsalar, o'z joniga qasd qilish fikrlari shunchalik tez-tez uchraydi. Ota-onalar bilan yaxshi munosabatlar o'z joniga qasd qilish xavfini kamaytiradi, doimiy tortishuvlar esa bu xavfni oshiradi. Ammo bolalar eng og'riqli narsani hatto ota-onalari bilan bo'lgan mojarolar emas, balki ularning sovuq befarqligi boshdan kechirishadi. Yoshlarning ko'pchiligi qiyin paytlarda hech kimdan yordam so'rab murojaat qilishni xohlamasliklarini (yoki qila olmasliklarini) aytganda, yolg'izlikning halokatli sovug'ini sezishadi. Shuning uchun, ularning atrofidagi o'nlab odamlar - oila, yaqinlar, do'stlar va o'qituvchilar orasida yosh odam chuqur dardini baham ko'radigan, ruhini yengillashtiradigan, shifobaxsh hamdardlik oladigan yoki foydali maslahatlar oladigan birorta ham odam yo'q deb o'ylaydi. Chunki bu davrda yetakchi faoliyat intim muloqot hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda o'smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlar, kamyuter o'yinlarining haddan tashqari ommalashib ketganligi ham suitsid holatiga olib kelmoqda. Masalan, o'smir kamyuter o'yinlari uchun katta pul sarflaydi, afsuski pulni yutqazib qo'yishi sababli o'z joniga qasd qiladi. O'smirning fikricha bu holatni to'g'irlashning o'limdan boshqa chorasi yo'qdek tuyiladi.

³ Вопросы диагностики и профилактики суицидального поведения детей и подростков: Методические рекомендации Ворсина О.П., Дианова С.В., Чернигова Е.П. – Иркутск, 2015.



Qizlar orasida ko'pincha erta homiladorlik vaqtida yoki istalmagan zo'ravonlikka uchraganda suitsid holatlari sodir bo'ladi. Ushbu vaziyatlar yoki muammolardan birini boshdan kechirayotgan o'smirda keyingi qiyinchiliklarga dosh berish uchun hissiy, ruhiy yoki jismoniy kuch yetishmasligi mumkin. Bunday holatda ular muammoning birdan bir yechimi suitsid deb o'ylashadi. Hozirgi vaqtda o'smirlar orasida suitsid holatining yuzaga kelishida asosiy sabablar yuqorida keltirib o'tilganlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar: O'smirlar orasida suitsid holatlari yuz bermasligi birinchi navbatda ota-onaning vazifasi hisoblanadi. Ota-onalar bolalar uchun ishonchli muhitni yaratishi, ular bilan doimo muloqotda bo'lishi, qo'lidan kelmaydigan haddan tashqari qiyin ishlarni zimmasiga yuklamasligi lozim. Maktabda pedagog va psixolog birgalikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagoglar tomonidan bolalarni o'qishga qiziqishini oshirish, ma'lum sport turiga jalb qilish, mehnatga o'rgatish, turli fan to'garaklariga qatnashtirish, kitobxonlikni targ'ib qilish bo'lsa;

Psixolog o'smirlar orasida turli treninglar o'tkazishi, "Hayot qadri" kabi psixologik tadbirlarni tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'smir bilan ochiq suhbat qilish;

Uni tinglash va tushunish:

Ruhiy qo'llab quvatlash ;

Kerak bo'lganda unga yordam qo'lini cho'zish ham suitsid holatini kamayishiga yoki oldini olishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.



2. Вопросы диагностики и профилактики суицидального поведения детей и подростков: Методические рекомендации /Ворсина О.П.,Дианова С.В., Чернигова Е.П. – Иркутск, 2015.
3. “Хулқи оғишган болалар психологияси” Н.Ғ. Комилова Услубий қўлланма. 2008.
4. “Хулқи оғ’ишган болалар психологияси” D.Abduvahobova 2013.
5. “Deviant xulq-atvor psixologiyasi” I.M.Xakimova 2014.